

107. 7 sonini ko'paytirish va 7 ga ko'paytirish

Yondosh mavzu:
rejalashtirish.

Ko'paytuvchi, ko'paytma.



Sehrli
kvadratni
to'ldiring.

☆ 102 ☆

21		32	
26		23	
	28		
33		20	30



1. II chorak 7 hafta davom etadi. Agar har bir oy taxminan 30 kun bo'lsa, bu necha oy bo'ladi?



2. Yettitalab sanang: 7, 14, 21, 28, ... 70 gacha davom ettiring.



7 ga ko'paytirish jadvali

<i>a</i>	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
<i>a</i> · 7	7	14	21	28	35	42	49	56	63	70



3. Hisoblang.

$$89 - (7 \cdot 7)$$

$$(7 \cdot 9) - (4 \cdot 7)$$

$$35 + (7 \cdot 6)$$

$$(7 \cdot 10) + (2 \cdot 7)$$



4. Zohid har hafta jamg'armasiga 7 ming so'm qo'shib qo'yadi. Agar hozir uning jamg'armasida 50 ming so'm bo'lsa, 9 oydan keyin jamg'argan pullari necha so'm bo'ladi?



5. Temur singlisi uchun rasmdagi kabi sehrli tayoqcha yasadi. Agar qizil yulduzcha qismi uchun 7 cm, ko'k dastasi uchun 25 cm sim ketgan bo'lsa, unga jami qancha sim kerak bo'lgan?




107. 7 sonini ko'paytirish va 7 ga ko'paytirish




6. Sonli nurda Amirning otasi ishlaydigan vaqt ko'rsatilgan. U har kuni qancha vaqt ishlashini aniqlang.

Dushanbadan jumagacha:



Shanba kuni:



7. Hisoblang va o'quvchilar uchun rejalashtirish yana qanday atalishini aniqlang.

I $456 + 183$

B $187 + 178$

N $98 + 574$

R $881 - 203$

K $290 + 120$

T $753 - 92$

A $901 - 204$

U $335 + 375$

410 702 672

661 697 678 661 639 365 639



8. Hisoblang.

$358 - (7 \cdot 7)$

$621 + (9 \cdot 7)$

$(7 \cdot 3) + (6 \cdot 6)$

$554 + (4 \cdot 5) + (3 \cdot 8)$

$(10 \cdot 7) - (7 \cdot 4)$

$(80 - 74) \cdot 7$



9. Ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini hisoblang. Asad 9 yoshda. Bobosining yoshi Asadning yoshidan 7 marta katta. Bobosi necha yoshda? Asad bobosidan necha yosh kichik?